

# Matematika

I qism

4



UO'K 51(075.3)  
KBK 22.1ya72  
R 42

I.V.Repyova  
**Matematika.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun  
darslik, I qism / I.V.Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment"  
nashriyoti, 2023. – 128 b.

#### Taqrizchilar:

- N.M.Usmanova** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- Sh.Y.Muslimova** – Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- O.Sh.Yevstafyeva** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

## Shartli belgilar:



**Yozma  
bajaring**



**Og'zaki  
bajaring**



**Juft bo'lib  
ishlang**



**Mantiqiy  
topshiriq**



**Uyga vazifa**

Eslatma O'Ichov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining qayta tashkil etilishi to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalanildi.

ISBN 978-9943-9697-0-4

© I.V.Repyova  
© "Novda Edutainment", 2023

## Aziz bolajonlar!

To'rtinchi sinfni boshlagunga qadar siz allaqachon ko'p narsalarni bilib oldingiz. Bu yil biz yuqori bosqichga – o'rta maktabga o'tishga tayyorgarlikni boshlaymiz. Kitobimizning birinchi qismida siz sonlarning yangi xossalari bilan tanishasiz, matematik qonunlarning kundalik hayotimiz bilan qanday bog'liqligini bilib olasiz. O'zbekistonning qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi bilan tanishasiz, qadimiy va zamonaviy binolarda geometriyaning qanday qo'llanilganini tushunasiz, jadval va diagrammalar yordamida O'zbekistonning taraqqiyotini o'rganasiz.



## 1. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar



Yondosh mavzu:  
O'zbekiston Respublikasi

Sinflar, xona birliklari,  
sonlar tarkibi



1. Bu yerda qanday raqamlar tasvirlanganini ayting.

a)



b)



d)



2. O'qing. Har bir sonning sinflari va xonalarini ayting. Har bir sonda nechta to'liq o'nlik, to'liq yuzlik, to'liq minglik bor?

O'zbekiston Respublikasi hududi 448 924 kvadrat kilometr. Hududining kattaligi bo'yicha dunyoda 56-o'rinni egallaydi. Respublika shimoldan janubga 925 km ga, g'arbdan sharqqa 1 400 km ga cho'zilgan.

O'zbekiston beshta davlat: shimol va g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari bilan, janubdan Afg'oniston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi 6 221 km.



3. Sonlarni ko'rsatmalarga muvofiq o'zgartiring.
- 345 790 sonida o'n minglar xonasidagi sonni 3 taga orttiring.
  - 150 780 sonida yuzlar xonasidagi sonni 4 taga kamaytiring.
  - 327 221 056 sonida bir millionlar xonasidagi sonni 1 taga orttiring.
  - 611 090 008 sonida birliklar xonasidagi sonni 3 taga kamaytiring.



4. Shaharlarni ular aholisi sonining o'sib borishi tartibida ayting.

### O'zbekiston shaharlari aholisi

Jizzax	136 522	Toshkent	2 135 777
Namangan	408 530	Andijon	352 614
Termiz	120 823	Urganch	136 359
Buxoro	237 878	Nukus	258 192



5. Qanday so'z yashiringan? Uning respublikamizga aloqasi bormi?  
 $876\,564 - 132 \cdot (41\,090 - 37\,697) : 33 - 432\,000 : 150$

**Y** 13 572      **D** 450 756      **L** 2 880      **T** 560 349  
**S** 3 393      **A** 447 876      **O** 862 992      **V** 860 112



6. Ushbu birliklardan iborat sonlarni yozing.
- 7 million, 230 minglik, 45 birlik;
  - 23 million, (23 - 17) minglik, (62 + 128) birlik;
  - (320 : 80) million, (280 : 4) minglik, (107 + 278) birlik;
  - 25 · 6 million, 14 · 7 minglik, 23 · 20 birlik;
  - (900 - 137 - 163) million, (600 : 2 : 3) minglik, (473 + 198) - 373



7. 1, 8, 9 raqamlaridan tashkil topgan barcha uch xonali sonlarning yig'indisini toping.




## 1. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar



8. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni mustaqil Davlat deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi necha yildan beri mustaqil?



9. Diagrammadan O'zbekiston qaysi davlat bilan eng uzun, qaysi davlat bilan eng qisqa chegaraga ega ekanini aniqlang. O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan umumiy chegarasi uzunligini toping.



10. To'rt xonali sonning yozuvida 6 ta yuzlik bor, birliklar soni yuzliklar sonidan 3 marta kam, o'nliklar soni esa birliklar va yuzliklar sonlari yig'indisiga teng. Agar bu son to'liq 5 ta minglikdan iborat bo'lsa, u qanday son?



11. Daftaringizga yozing va bo'shliqlarni to'ldiring.

a) 78 670 = \_\_\_ mingl. \_\_\_ birl.

b) 3 005 = \_\_\_ mingl. \_\_\_ birl.

d) 3 144 014 = \_\_\_ mln. \_\_\_ mingl. \_\_\_ birl.

e) 20 090 040 = \_\_\_ mln. \_\_\_ mingl. \_\_\_ birl.

f) 457 028 403 = \_\_\_ mln. \_\_\_ mingl. \_\_\_ birl.



12. 2022-yilning birinchi kunida O'zbekistonda 2 316 nafar bola tug'ilgan bo'lsa, ikkinchi kuni 1 056 nafar qiz va 1 099 nafar o'g'il bola dunyoga keldi. Qaysi kuni kam va qancha kam bola tug'ildi? 2022-yilning dastlabki ikki kunida jami necha nafar chaqaloq tug'ilgan?


## 2. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar bilan amallar

Yondosh mavzu:  
Toshkent

Taqqoslash, qo'shish,  
sonlarni ayirish,  
sonli nur



1. Toshkentdan boshqa aholi punktlariga borish yo'lida bir xil oraliq masofalarda simyog'ochlar o'rnatildi. Simyog'ochlarda Toshkentdan bosib o'tilgan kilometrilar soni qayd etilgan. Qolgan simyog'ochlarni raqamlang. Ko'rsatilgan shaharlargacha bo'lgan masofalarni toping.



2. Toshkent viloyati xaritasida bir santimetrga haqiqiy yo'lning 12 kilometri to'g'ri keladi. Sonli nur chizing. Birlik kesma sifatida 2 ta katakni oling. Unda 12 km ni belgilang. Sonli nurda Keles (1 cm), Angren (9 cm), G'azalkent (6 cm), To'ytepa (3 cm) shaharlari qayerda joylashganini ko'rsating. Ulardan Toshkent shahrigacha bo'lgan masofalarni toping.

*Namuna:*



## 2. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar bilan amallar



3. Toshkent shahridagi ushbu binolarning qurilish sanalarini ortib borish tartibida belgilang. Ulardan qaysi biri eng qadimiy? Qaysi biri eng zamonaviy?

Do'mbirobod  
masjidi  
1992-yil

Minor  
masjidi  
2014-yil

Nosirxon ota  
masjidi  
1990-yil

To'xtaboy  
masjidi  
1908-yil

Oxunguzar  
masjidi  
1775-yil

Hastimom  
majmuasi  
2007-yil



4. Ustun ko'rinishida qo'shish qanday bajarilishini eslang. Qo'shish amali to'g'ri bajarilganmi? Tekshiring.

$$\begin{array}{r} 232045 \\ + 767 \\ \hline 399045 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 71026 \\ + 5381 \\ \hline 76307 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 87520 \\ + 4890 \\ \hline 81410 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 99999 \\ + 11111 \\ \hline 100000 \end{array}$$

Bu misollarni daftaringizda to'g'ri yeching.



5. Ustun ko'rinishida ayirish qanday bajarilishini eslang. Ayirish amali to'g'ri bajarilganmi? Tekshiring.

$$\begin{array}{r} 9430 \\ - 782 \\ \hline 8470 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 634725 \\ - 2953 \\ \hline 632232 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 38002 \\ - 1532 \\ \hline 36570 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 10000 \\ - 9999 \\ \hline 1111 \end{array}$$

Bu misollarni daftaringizda to'g'ri yeching.



6. Qo'shish va ayirishning asosiy xossalarini eslang. Hisoblashning qulay usulini tanlang.

a)  $102 + 175 + 398$

b)  $46 + 178 + 54$

d)  $109 + 27 + 91 + 273$

e)  $12 + 45 + 288 + 155$

f)  $(265 + 147) - 165$

g)  $(118 + 486) - 136$

h)  $1000 - 234 - 566$

i)  $987 - (139 + 687)$



## 2. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar bilan amallar



7. Misollarni yeching. Oxirgi noma'lum qiymat Toshkent shahri qanday hududni egallaganini ko'rsatadi (kvadrat kilometrlarda).

$$A = 649 + 198$$

$$B = A - 507$$

$$D = 369 + B$$

$$E = D - 582$$

$$F = 476 + E$$

$$G = F - 168$$

Toshkentning maydoni O'zbekiston maydonidan qancha kichik?  
O'zbekistonning umumiy hududi 448 978 kvadrat kilometr.



8. Toshkent shahrida 8 ming 556 gektar maydonni turar joy binolari egallagan, bu sanoat korxonalari egallagan maydonga nisbatan 13 ming 697 gektar kam. Turar joy binolari va korxonalar necha gektar yerni egallagan?



9. So'roq belgisi o'rnida nima turishi kerakligini toping.



10. Hisoblang.

a) Toshkentdagi eng qadimgi madrasalardan biri qanday nomlanadi?

$$2\ 804 : 4 + (1\ 196 : 4 + 139) \cdot 7 + 9 \cdot (964 - 23 \cdot 13)$$

$$SH\ 3\ 767$$

$$A\ 665$$

$$L\ 701$$

$$D\ 3\ 066$$

$$O\ 5\ 985$$

$$K\ 299$$

$$O'\ 438$$

$$T\ 9\ 752$$

b) Ifodaning qiymatini toping va u nechanchi yilda qurilganini aniqlang.

$$10\ 076 - (24 \cdot 52 + 1\ 890 \cdot 2) - 3 \cdot (675 + 429) - 167$$



11. Toshkent bo'ylab sayohatga 139 nafar erkak, ulardan 84 nafar ko'p ayol, erkaklardan 47 nafar ko'p bolalar chiqishdi. Sayohatga borganlarning umumiy soni nechta?

## Mundarija

1. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar .....	4
2. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar bilan amallar .....	7
3. Takrorlash. Ko'p xonali sonlar bilan amallar .....	10
4. Takrorlash. Amal hadlari .....	13
5. Takrorlash. Harakatga doir masalalar .....	16
6. Takrorlash. Formulalar .....	19
7. Takrorlash. Ish unumdorligiga doir masalalar .....	22
8. Takrorlash. Tenglamalar va tengsizliklar .....	25
9. Takrorlash. Koordinata nuri va burchagi .....	28
10. Takrorlash. Vaqt .....	31
11. Takrorlash. Yuza va perimetr .....	34
12. Bo'luvchilar va karralilar .....	37
13. 10 ga bo'linish alomati .....	40
14. 5 ga bo'linish alomati .....	43
15. 2 ga bo'linish alomati .....	46
16. 3 ga bo'linish alomati .....	49
17. 9 ga bo'linish alomati .....	52
18. 4 ga bo'linish alomati .....	55
19. Masalalar yechish .....	58
20. Masalalar yechish .....	61
Yakuniy dars .....	64
21. To'plamlar va ma'lumotlar .....	66
22. Ma'lumotlarni taqdim etish usullari .....	69

23. O'rta arifmetik .....	72
24. Chastota.....	75
25. Amaliy masalalar.....	78
26. Amaliy topshiriqlar.....	81
27. Parallel va perpendikular to'g'ri chiziqlar .....	84
28. Koordinata nuri .....	87
29. Koordinata burchagi.....	90
30. Ustunli diagramma.....	93
31. Chiziqli diagramma .....	96
32. Amaliy masalalar.....	99
33. Grafik.....	102
34. Masalalar yechish .....	105
35. Masalalar yechish .....	108
36. Venn diagrammasi .....	111
37. Masalalar yechish .....	114
38. Masalalar yechish .....	117
39. Ekologik masalalar.....	120
Yakuniy dars .....	123

**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga***

***murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi***

***4-sinf matematika I qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.***

**Telegram kanalimiz:**

**[@Maktablar\\_uchun\\_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)**



**DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT**

**QILMANG.**